O‘ZBEKISTONDA MIGRATSIYA SIYOSATINI STRATEGIK BOSHQARISH ISTIQBOLLARI

Xamidov Elyorjon Tursunali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
+998882609609
hamidovelyor@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada globallashuv sharoitida davlat migratsion siyosati samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda migratsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlarini hisobga olish masalalari ko‘rib chiqilgan. Mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashning ahamiyati asoslangan.*

Kalit so‘zlar. *migratsiya, migratsion siyosat, globallashuv, mehnat bozori, migratsiya oqimlari, davlat boshqaruvi, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy muvozanat, idoralararo hamkorlik, migratsiyani tartibga solish.*

KIRISH

Globallashuv va xalqaro mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida migratsiya jarayonlarini strategik boshqarish mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mehnat resurslarining hududlar va davlatlar o‘rtasidagi harakati aholi bandligi, daromadlar darajasi, inson kapitali hamda mehnat bozori muvozanatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli migratsiya siyosatini uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish, uning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xatarlarni kamaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston sharoitida migratsiya siyosatini strategik boshqarish aholining munosib bandligini ta’minlash, tashqi mehnat migratsiyasini tartibli tashkil etish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish bilan uzviy bog‘liqdir. Tashqi mehnat migratsiyasi aholi daromadlarini oshirish va kasbiy tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Ayni paytda malakali kadrlarning chiqib ketishi, oilaviy munosabatlarga tushadigan bosim hamda tashqi mehnat bozorlariga qaramlik kabi holatlar migratsiya jarayonlariga tizimli yondashishni talab etadi. Bunda ichki va tashqi migratsiyani hududlarning demografik holati, mehnat resurslari salohiyati va ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyoji bilan birgalikda baholash zarur.

Migratsiya siyosatining samaradorligi boshqaruv qarorlarining ishonchli ma’lumotlar va ilmiy prognozlarga tayanishi, mas’ul tashkilotlar faoliyatining muvofiqlashtirilishi hamda belgilangan chora-tadbirlar natijalarining muntazam baholab borilishiga bog‘liq. Xususan, migrantlarni kasbiy va til jihatidan tayyorlash, xorijda orttirilgan malakalarni tan olish, qaytib kelgan fuqarolarning mehnat bozoriga

moslashuvini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning jamg‘armalarini tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish strategik boshqaruvning muhim yo‘nalishlaridir. Ushbu jarayonlarda raqamli axborot tizimlari va xalqaro hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish boshqaruvning tezkorligi va manzilliligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda migratsiya siyosatini strategik boshqarishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash hamda uning samaradorligini oshirish istiqbollarini yoritishdan iborat. Shu maqsadda migratsiya jarayonlarining mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi, boshqaruvning institutsional mexanizmlari hamda migratsiya salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

S.Donaldson va M.Lipsi ma’lum bir sohada davlat siyosati samaradorligini baholashning turli amaliyotlarini ko‘rib chiqib, amalga oshirilayotgan siyosatning sifati to‘g‘risida muayyan mulohazalar ko‘rinishida baholash amaliyoti haqida alohida to‘xtalib o‘tadilar. [1]

Migratsiya jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli ortib borayotganini alohida qayd etishimiz kerak. L.V.Smorgunov o‘z tadqiqotlarida “Siyosiy va ma’muriy faoliyat jarayonlarni yangi shakllar va mexanizmlar bilan to‘ldirilib, oldingi modellar uchun noodatiy tarkibiy qismlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi”. Masalan, jamoat ekspertizasi, jamoat forumlari, davlat va xususiy sektorning qo‘shma komissiyalari va boshqalar siyosatni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtirokining ushbu yangi shakllari uchun turli nomlardi. [1]

Davlatning demografik siyosatini, uning migratsiya va demografik tarkibiy qismlarini iqtisodiy nuqtai nazardan hisobga olgan holda, davlat tomonidan tug‘ilishni rag‘batlantirish, tug‘ilish darajasini oshirish va o‘rtacha yoshni ko‘tarishga qaratilgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari e’tiborga olinadi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining migratsiyasi ommaviy tashqi ta’sirlarga nisbatan sezgir. Biroq, ushbu jarayonga davlatning strategik maqsadlari nuqtai nazaridan qaralsa, ulardan biri “demografik farovonlik” deb hisoblanadi. [2]

E.S.Shevchenko samaradorlik konsepsiyasini quyidagicha ta’riflaydi: “Siyosiy maqsad va vazifalarni shakllantirishning umumiy muammolariga (nazariy jihatdan) kiritilgan va shakllantirilgan siyosiy maqsad va vazifalar bilan erishilgan siyosiy o‘zaro bog‘liqlikni tekshirish uchun asos sifatida foydalaniladigan o‘ziga xos makroko‘rsatkich”.[3]

Shuningdek, “davlat samaradorligi” masalasiga A.A. Korobovning yondashuvi qiziqarlidir. Uning ta’kidlashicha, migratsiya oqimlarini boshqarishda davlatning samaradorligi “jarayondagi alohida tarkibiy bo‘linmalar ishining uyg‘unligi” kabi ko‘rsatkichlarga bog‘liqdir.[4] Bu nafaqat migratsiya jarayonlarini boshqarishning bevosita samaradorligini, balki boshqaruv subyektlari – davlatning migratsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan organlar faoliyatining samaradorligini ham tahlil qilish imkonini beradi.

Ayniqsa, davlat migratsiya siyosatini amalga oshirish vazifasi ijro hokimiyati

organlariga yuklanganligi sababli, ushbu jihat migratsiya boshqaruvining eng muhim omillaridan biri sifatida ko‘riladi. O‘z navbatida, migratsiya oqimlarini boshqarish jarayonida alohida tarkibiy bo‘linmalar ishining uyg‘unligi haqida gapirganda, boshqaruvning texnologik samaradorligi va byurokratiyaning o‘zi kabi toifalarga murojaat qilish mantiqan to‘g‘ri keladi.

S.M.Popova va A.A.Yanik migratsiyani boshqarish samaradorligini baholashning turli yondashuvlarini tahlil qilib, byurokratiyaga ham murojaat qiladilar va ikkita yondashuvni – byurokratik va akademik yondashuvni ajratib ko‘rsatadilar.[5]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini migratsiya siyosatini strategik boshqarishga doir ilmiy yondashuvlar, tizimli va institutsional tahlil usullari tashkil etadi. Migratsiya jarayonlari mehnat bozori, demografik holat hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali migratsiya siyosati samaradorligini baholashga oid qarashlar tizimlashtirildi. Institutsional tahlil yordamida davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilikning migratsiyani boshqarishdagi vazifalari hamda ularning o‘zaro hamkorlik mexanizmlari ko‘rib chiqildi.

Mehnat migrantlarini qabul qiluvchi davlatlardagi tashqi muhitni o‘rganishda PESTLE yondashuvi asos qilib olindi. Ushbu yondashuv doirasida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy moslashuv sharoitlari, texnologik infratuzilma, huquqiy himoya va ekologik omillar migratsiya qarorlariga ta’sir etuvchi mezonlar sifatida ajratildi. Mazkur mezonlar asosida qabul qiluvchi davlatlarni migrantlar uchun qulaylik va xavf darajasiga ko‘ra yashil, sariq va qizil toifalarga ajratishning konseptual yondashuvi ishlab chiqildi. Toifalash miqdoriy reytingdan ko‘ra sharoit va xatarlarni sifat jihatidan tavsiflashga yo‘naltirildi. Tahlil va sintez hamda mantiqiy umumlashtirish usullari orqali O‘zbekistonda migratsiya siyosatini strategik boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Migratsiya jarayonlari boshqarish obyekti sifatida migratsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda asos bo‘lib xizmat qiladigan maqsadlarni ishlab chiqishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, muayyan hududning tabiiy-iqlim sharoitlari migratsiya oqimlarining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga jiddiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, mintaqadagi siyosiy jarayonlarning xususiyati, jumladan, militarizatsiya yoki harbiy harakatlar kabi ekstremal holatlar, geosiyosiy pozitsiya va hududning strategik salohiyati davlat boshqaruv organlarining migratsiya bilan bog‘liq harakatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Migratsiya siyosatining asosini tashkil etuvchi maqsadlarni belgilash migratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichiga bog‘liqdir. Bundan tashqari, migratsiyani boshqarish umumiy davlat boshqaruvining asosiy yo‘nalishlariga muvofiq bo‘lishi shart.

Migratsiya jarayonlarini har tomonlama o‘rganish quyidagi xulosaga kelishga imkon beradi ya’ni, aholi harakatlanish jarayonlari iqtisodiy rivojlanish, demografik

vaziyat, mamlakatning harbiy-mudofaa salohiyati va boshqa milliy masalalar bilan bevosita va uzviy bog‘liqdir. Shu sababli, muayyan davr va hududga xos shart-sharoitlarda, migratsiyaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojiga ta’sirining ayrim jihatlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Bularning barchasi davlatning migratsiya siyosati asosida belgilangan maqsadlarda to‘liq va aniq aks etishi zarur. Migratsiya jarayonlarini boshqarish, shu jumladan iqtisodiy va demografik omillar, geosiyosiy strategiya va ijtimoiy-siyosiy holatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.



1-rasm. Makro darajadagi migratsiya siyosati modeli

Migratsiya siyosati vositalarining universalligi ularning aniq belgilangan qadriyatlarga erishish uchun turli xususiyatlarga ega bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llanilish imkoniyatini anglatadi. Ushbu xususiyatlar aholi tarkibi (ijtimoiy, etnik, yosh va jinsiy), hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy tizim va boshqa omillarni o‘z ichiga oladi. Bu vositalar migratsiya jarayonlarining asosiy ko‘rsatkichlarini boshqarishga qaratilgan.

Migratsiya siyosati vositalariga nisbatan barqarorlik ularning siyosiy boshqaruv tizimini saqlab qolishga xizmat qilishini anglatadi. Bu vositalardan foydalanish mavjud ijtimoiy munosabatlar modelini tubdan o‘zgartirish bilan bog‘liq emas, aks holda

vaziyatning beqarorlashishiga olib kelishi mumkin.

Muntazamlik esa migratsiya siyosati vositalarining nafaqat mazmunini, balki ularni qo‘llash usullarini ham anglatadi. Muntazamlikka amal qilish vositalardan foydalanish jarayonini soddalashtirishni, shuningdek, ushbu vositalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mutaxassislarni oldindan tayyorlashni talab qiladi. Bu ma’lum darajada boshqaruv jarayonlarini tartibga solishga imkon beradi. Ushbu vositalar jamlanmasi migratsiya siyosati modelini shakllantiradi.

Migratsiya jarayonlarini boshqarish muayyan natijalarga olib keladi. Migratsiya siyosatining asosiy natijasi davlat tomonidan qo‘yilgan maqsadlarning amalga oshirilishi yoki amalga oshirilmasligi bilan aniqlanadi. Bu natijalar migratsiya jarayonlarining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarga ta’sirini baholash orqali o‘lchanadi.

1-rasm migratsiya siyosatining sub’ektlari, vositalari va ta’siri haqida batafsil tushunchani beradi. Bu mexanizm migratsiya siyosatining turli jihatlarini ko‘rsatib, uch asosiy qismga bo‘linadi. Birinchisi, migratsiya siyosatining sub’ektlari davlat, xalqaro tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilikni o‘z ichiga oladi. Davlat organlari qonunchilik va tartibga solish vositalari orqali siyosatni amalga oshiradi va nazorat qiladi, xalqaro tashkilotlar migratsiya muammolari va demografik muammolarni global miqyosda hal qilishda ko‘maklashadi, nodavlat tashkilotlar migratsiya jarayonlarida ishtirok etadi, tadqiqot olib boradi va ko‘mak ko‘rsatadi, jamoatchilik esa turli tashabbuslar va fikrlar orqali siyosatga ta’sir ko‘rsatadi.


Ikkinchi qism migratsiya siyosatini amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan vositalarni o‘z ichiga oladi. Qonunchilik orqali migratsiya jarayonlarini tartibga solish va nazorat qilish uchun qabul qilingan qonunlar, iqtisodiy stimullar orqali migrantlar uchun rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar, masalan, soliq imtiyozlari yoki moliyaviy yordam, ijtimoiy dasturlar orqali migrantlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘lga qo‘yilgan turli ijtimoiy xizmatlar va dasturlar hamda ta’lim va malaka oshirish dasturlari orqali migrantlarning jamiyatga moslashishi va integratsiyasini osonlashtirish uchun ta’lim va malaka oshirish dasturlari ko‘rsatiladi.

Uchinchi qism migratsiya siyosatining ta’sirini bevosita va bilvosita yo‘nalishlarda tahlil qiladi. Bevosita ta’sirlar siyosatning darhol va aniq natijalari bo‘lib, siyosatning asosiy maqsadlari bilan mos keladi va kutilgan tarzda amalga oshiriladi. Bilvosita ta’sirlar esa siyosatning yon natijalari bo‘lib, kutilmagan va vaqt o‘tishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin.

Migratsiya siyosati davlatning strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Migratsiya jarayonlarini boshqarish samaradorligini ta’minlash, demografik barqarorlikni saqlash va suverenitetni himoya qilish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biridir. Siyosatning muvaffaqiyati esa faqat qonunchilik va iqtisodiy stimullar bilan cheklanmasligi, balki jamoatchilik ishtiroki va nodavlat tashkilotlarining faol ko‘magiga ham bog‘liqdir. Bu tahlil orqali migratsiya siyosatining murakkab mexanizmlarini va uning jamiyatga ta’sirini tushunish mumkin.

Xalqaro mehnat migratsiyasi va mintaqaviy migratsiya oqimlari rivojlanib, mamlakatlarning iqtisodiy, demografik va ijtimoiy barqarorligida muhim omilga aylangan. Ayniqsa, migratsiya jarayonlarining samarali boshqaruvi va davlat siyosati

mazkur jarayonlardan kelib chiqadigan ijobiy imkoniyatlardan foydalanish hamda salbiy oqibatlarni minimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.



2-rasm. Mehnat migrantlarini qabul qiluvchi davlatlarni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillar asosida toifalash

Davlat migratsiya siyosati ikki asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: birinchidan, fuqarolarning xorijga chiqishi bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga solish va ikkinchidan, mamlakat ichida mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda migratsiyani boshqarish. Aynan shu yo‘nalishlar davlat organlarining strategik maqsadlariga erishish uchun kuchli mexanizmlar va vositalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Migratsiya jarayonlarini to‘g‘ri yo‘naltirishda, davlat tomonidan maqsadli strategiyalar

ishlab chiqishda, migrantlar yo‘naltirilayotgan davlatlarni tahlil qilish va toifalash muhim omil hisoblanadi.

Quyida migratsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun qabul qiluvchi davlatlarni qizil, sariq va yashil toifalarga ajratish orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga e’tibor qaratildi. Mazkur yondashuv davlatning migratsiya siyosatini yanada samarali tashkil etish va migrantlarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ushbu tahlilning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston uchun migratsiya siyosati nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy va demografik taraqqiyot omillarini ham qamrab oladi. Shu bois, qabul qiluvchi davlatlarning migratsiya imkoniyatlari va sharoitlarini o‘rganish davlat siyosatini takomillashtirishda va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Migratsiya oqimlarining shakllanishi va davom etishi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, bu omillar qabul qiluvchi davlatlarning sharoitlari va imkoniyatlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur jarayonlarni tahlil qilishda Pestle tahlili samarali yondashuv hisoblanadi, chunki u iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillarni tizimli o‘rganish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonni yaxshiroq tushunish va davlatlarni migrantlar uchun qulaylik darajasi bo‘yicha tasniflash uchun PESTLE-tahlili matritsasidan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

PESTLE-tahlili iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillarni o‘z ichiga olib, har bir davlatning migratsiyaga ta’sir qiluvchi jihatlarini tizimli tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu tahlil yordamida davlatlar ekspertlar tomonidan migratsiya oqimlari vujudga kelishiga eng yuqori ta’sir ko‘rsatuvchi deb baholangan bir qancha mezonlar asosida baholanadi.

MUHOKAMA

Migrantlar uchun eng qulay davlatlar yuqori iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy xizmatlarning keng qamrovli tizimiga ega bo‘lgan davlatlardir. Bunday davlatlar, odatda, migrantlarning huquqlarini qonunchilik darajasida himoya qiladi, ularni iqtisodiy tizimga samarali jalb qiladi va integratsiya jarayonini yengillashtiradi. Bunday davlatlarda xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lib, migrantlar irqchilik, ekspluatatsiya yoki diskriminatsiyaga uchramaydi. Bundan tashqari, migratsiya siyosati yaxshi tartibga solingan bo‘lib, vaqtinchalik ish vizalaridan ko‘ra doimiy yashash va ishga joylashish imkoniyatlari ko‘proq taqdim etiladi. Bu davlatlar ko‘pincha global migratsiya boshqaruvining ilg‘or modellari sifatida qaraladi va migrantlarning mahalliy jamiyatga integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadi.

Shu bilan birga, ba’zi davlatlarda migrantlarga nisbatan siyosiy munosabat mo‘tadil, lekin ayrim cheklovlar saqlanib qolgan. Masalan, vaqtinchalik ish vizalarining keng tarqalganligi, yuqori byurokratik to‘siqlar yoki ba’zan cheklangan sohalarda ishlashga ruxsat berilishi migrantlarning iqtisodiy faolligini pasaytirishi mumkin. Bu davlatlar odatda migrantlarning xavfsizligi va huquqlarini qisman himoya qiladi, biroq ayrim sohalarda diskriminatsiya yoki migratsiya siyosatidagi ziddiyatli yondashuvlar kuzatilishi mumkin. Bunday muhit migrantlar hayotida noaniqlik va

xavotirni kuchaytiradi, bu esa ularning iqtisodiy va ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qizil toifaga kiruvchi davlatlarda migrantlarning holati keskin salbiy ahvolda. Bu davlatlarda iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy nohaqlik va huquqiy tizimlarning samarador emasligi migrantlar hayotini og‘irlashtiradi. Bunday muhitda migrantlar ko‘pincha xavf-xatarga duch keladi: ekspluatatsiya, irqchilik va ksenofobiya darajasi yuqori bo‘ladi. Migrantlarga qarshi keskin siyosat yuritiladigan bunday davlatlarda huquqiy himoya deyarli mavjud emas, ayrim hollarda esa ularga qarshi maxsus repressiv qonunchilik qabul qilingan bo‘lishi mumkin. Bu esa migrantlarning nafaqat iqtisodiy, balki psixologik va jismoniy xavfsizligini ham xavf ostiga qo‘yadi. Bu davlatlarda yashash va ishlash migrantlar uchun doimiy kurash va stress manbaiga aylanadi.

XULOSA

Xavfsizlik masalasi, shubhasiz, migrantlar uchun eng muhim omillardan biridir. Xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar migrantlar uchun yanada jozibador hisoblanadi, chunki bu davlatlarda jinoyatchilik darajasi past, irqchilik va ksenofobiya holatlari kam uchraydi. Biroq xavfsizlik bo‘yicha muammolar mavjud davlatlarda migrantlar ko‘pincha ish joyida ekspluatatsiya qilinadi, ularga nisbatan nohaq muomala yoki jinoyatchilik hollari ko‘proq kuzatiladi. Bundan tashqari, bunday davlatlar xavfsizlik tizimini kuchaytirishda migrantlarni qo‘llab-quvvatlashdan ko‘ra, ularni ayblash siyosatini afzal ko‘radi, bu esa xavfsizlik muammolarini yanada chuqurlashtiradi.

Bundan tashqari, migrantlarning huquqiy muhitdagi holati ularning ijtimoiy va iqtisodiy integratsiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Ba’zi davlatlarda migrantlarning huquqlari qisman himoyalangan bo‘lsa, boshqa davlatlarda huquqiy himoya to‘liq yo‘q bo‘lib, bu ularga qarshi bosimni kuchaytiradi. Migrantlar uchun huquqiy tizimning mavjud emasligi nafaqat ularning yashash va ishlash imkoniyatlarini cheklaydi, balki inson huquqlariga bo‘lgan asosiy talablarning buzilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Дональдсон С. И., Липси М. У.Роль теории в современной практике оценки: развитие практических знаний.
2. Сморгунов Л. В.Совместное управление и сотрудничество в системе публичной власти // Вестник Воронежского государственного университета. Сер.: История. Политология. Социология. 2022. № 1. С. 14–20. EDN LPVRVV
3. Рязанцев С. В., Ростовская Т. К., Архангельский В. Н. и др.Российское общество и госу-дарство в условиях становления нового мирового порядка: демографическая ситуация в 2022 году. М.: Издательство Проспект, 2023.
4. Шевченко Е. С.Технологии политического позиционирования президента США в глобальном измерении: определение критериев эффективности: дис. … канд. полит. наук: –М., 2023.
5. оробов А. А.Современные подходы к оценке эффективности

государственной миграци-онной политики // Среднерусский вестник общественных наук. 2023. Т. 18. № 6. –С. 176–189. DOI: 10.22394/2071-2367-2023-18-6-176-189.

6. Сыдихов А.Ш., Тягунов А.Г., Сергеев А.П., Тарасов Д.А. Применение метода искусственных нейронных сетей для анализа временных рядов // Передача, обработка, восприятие текстовой и графической информации: материалы междунар. науч.–практ. конф. (Екатеринбург, 19–20 марта 2015 г.). – Екатеринбург: УрФУ, 2015. – С. 58–64.

7. Сморгунов Л. В.Совместное управление и сотрудничество в системе публичной власти // Вестник Воронежского государственного университета. Сер.: История. Политология. Со-цио логия. 2022. № 1. С. 14–20. EDN LPVRVV.